

Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1 – bosqich talabasi

O'ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi bir qancha muammolar va yechimlarni o'z ichiga oladi. Atrof-muhitning ifloslanishiga va tashqi energiya manbalariga qaramlikka olib keladigan energetika sohasida qazib olinadigan yoqilg'iga qattiq bog'liqlik asosiy muammolardan biridir. Buni hal qilish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish juda muhim. Bundan tashqari, barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlari, suvdan samarali foydalanish, organik dehqonchilikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi kimyoviy moddalarini yaxshiroq nazorat qilish yashil iqtisodiyotning barqarorligi uchun juda muhimdir.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiyotning barqarorligi, tashqi energiya, innovatsia, neytralligi, cheklangan infratuzilmas, transformatsion jarayon

Аннотация. Переход Узбекистана к зеленой экономике включает в себя ряд проблем и решений. Одной из основных проблем является сильная зависимость от ископаемого топлива в энергетическом секторе, которая приводит к загрязнению окружающей среды и зависимости от внешних источников энергии. Инвестиции в возобновляемые источники энергии имеют решающее значение для решения этой проблемы. Кроме того, устойчивые методы ведения сельского хозяйства, эффективное использование воды, продвижение органического земледелия и лучший контроль над сельскохозяйственными химикатами имеют важное значение для устойчивости «зеленой» экономики

Ключевые слова: зеленая экономика, экономическая стабильность, внешняя энергетика, инновации, нейтральность, ограниченная инфраструктура, процесс трансформации.

Annotation. Uzbekistan's transition to a green economy includes a number of problems and solutions. Heavy dependence on fossil fuels in the energy sector, which leads to environmental pollution and dependence on external energy sources, is one of the main problems. Investing in renewable energy sources is critical to address this. In addition, sustainable agricultural practices, efficient use of water, promotion of organic farming and better control of agricultural chemicals are essential for the sustainability of the green economy

Key words: green economy, economic stability, external energy, innovation, neutrality, limited infrastructure, transformation process

Kirish. O'zbekiston ham ko'plab davlatlar qatori barqaror rivojlanishni ta'minlash va dolzarb ekologik muammolarni hal etish maqsadida yashil iqtisodiyot sari yo'lga chiqmoqda. Ushbu o'tish innovatsion yechimlar va turli manfaatdor tomonlarning birgalikdagi say-harakatlarini talab qiladigan bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Keling, yashil iqtisodiyotga o'tishda O'zbekiston duch keladigan muayyan muammolarga to'xtalib o'tamiz, yechimlarni taklif qilamiz va ijobiy o'zgarishlarga turtki beradigan tashabbuslardan misollar keltiramiz.

O'zbekistonning poytaxti bo'lmish Toshkent shahri hozirgi kunga kelib havosi eng yomon mamlakatlar 10 taligidan joy olmoqda va bu esa ko'plab ekologik muamolarni olib kelmoqda (IQAIR). Havoning yomonlashuviga birinchi sababi bu Toshkent issiqlik elektr stansiyasi "AJ" (IES) atrof muhitni ifloslantirayotganligi aniqlandi. Shu joyda bizlarda savol tug'iladi qanday qilib? Buning sababi shuki korxonaning asosiy yoqilg'isi gaz hisoblanib ular qo'shimcha yoqilg'i mazutdan foydalangan. Mazut bu neftdan 350-360 gradusda qaynaydigan yoqilg'ilar benzin, kerasin, dizel yoqilg'isi ajratib olingandan so'ng qoladigan qora yopishqoq suyuqlik hisoblanadi. Manashu sababli Toshkent shahri havosi tutun ichida qolgan. Bundan tashqari O'zbekiston energiya ishlab chiqarishda asosan qazib olinadigan

yoqilg'iga tayanadi. bu esa uglerod chiqindilarining yuqori darajasiga va atrof muhitning buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga tabiat bilan insoniyat ham zaxarlanmoqda misol qilib oladigan bo'lsak ko'p ijtimoiy tarmoqlarda eshitishimiz mumkin bo'lgan gap bu ko'chaga iloji boricha niqob bilan chiqing degan fikirlarni ko'ramiz. Bu fikirlarning aytilishi sababi shuki bu yomon havodan nafas olayotgan hamma mavjudot u odam bo'lsin yoki hayvon o'sha jonzotning nafas olish yo'lariga tasir qilgan holda ko'plab kasaliklar kelib chiqishi mumkin. Hamma masalaning yechimi bo'lganidek buning ham yechimi bor bu esa quyosh energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishi va toza energiya aralashmasini rag'batlantirish mumkin va bu esa cheklangan yer osti qazilmalaridan unumli foydalanishga olib keladi . Misol uchun O'zbekistonda 100MVt quvvatga ega Navoiy quyosh elektr stansiyasining amalga oshirilishi mamlakatning qayta tiklanadigan energiya quvvatlarini kengaytirishga intilishdan dalolat beradi .

Havodan mustasno holatda suv tanqisligini ham global muamoga kirg'izsak bo'ladi sababi shuki Markaziy Osiyo mamlakatlari 2050 yilga kelib Suv tanqisligidan aziyat chekishi mumkin degan ma'lumotlarga tayangan holatda shuni ko'rishimiz mumkinki hozirgi kunda O'zbekiston xududida joylashgan Orol dengizi qurishi oqibatida Orol dengiz atrofida yashaydigan aholi uzoq umur ko'rish yoshi shahar aholisi yoshidan ancha pasligini ko'rishimiz mumkin undan tashqari shu xududda joylashgan daraxtlarning qurib ketishi va bu xududa yashil makonlarni yo'qligi ham muamolarga sabab bo'lmoqda. Orol dengizi suvi qurishi sabablari ko'p ammo shuni aytish mumkinki Orol dengizi suvini samarasiz boshqarish oqibatida iqlim o'zgarishlariga olib keldi . Bundan tashqari suvning tanqisligi esa qishloq xo'jaligiga katta tasir qiladi. Misol uchun keying yillarda qishloq xo'jalik maxsulotlarining narxi keskin tarzda oshishiga olib kelishi mumkin. Bu esa axoli orasida katta muamolarni olib kledi . Mana shu sabablar kelib chiqmasligi sababli bizlar suvni tejaydigan sug'orish tizimlarini joriy etish va suvni qayta ishlash texnologiyalarga sarmoya kiritish suv tanqisligi muamolarini yengillashtirishi va suvdan barqaror foydalanishni rag'batlantirish mumkin. Misol uchun Yevropa Itifoqi tomonidan qo'llab quvvatlangan "Aqilli suvlar" loyihasi O'zbekistonda irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va salohiyatini oshirish orqali suv resurslarini boshqarishni yaxshilashga qaratilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 2-dekabr sanasida Birlashgan Arab Amirligida bo'lib o'tgan Konferensiyasidagi Nutqida Orol fojiasini ham aytib o'tganlar Uning ta'kidlashicha, Markaziy Osiyoda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'p, so'nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib yo'qoldi. "Tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo'ronlari, ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bio xilma-xillik qisqarishi, hosildorlikning keskin pasayishi va ko'plab boshqa muammolar mintaqada istiqomat qilayotgan millionlab odamlarning turmushi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda" — dedi davlat rahbari. Bundan mustasno hollarda Prezident "yashil" iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish Yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanini ta'kidladi.

Bulardan tashqari yana bir muamo bu o'zbekistonda chiqindilarning cheklangan infratuzilmasi. Bu nima degani bu chiqindilarni boshqarish tizimining noto'g'riligi atrof muhitning ifloslanishiga va chiqindilarni noto'g'ri boshqarishga yordam beradi, bu esa aholi salomatligi va eko tizimga tasir qiladi. Shu sababli iqtisodiyot bo'yicha aylanma tashaboslarni olg'a surish lozim va bu aylanma iqtisodiyot tamoyillarini ilgari surish , chiqindilarni kamaytirish , qayta ishlatish va qayta ishlashni rag'batlantirish . misol qilib oladigan bo'lsak Germaniya davlati da hamma plastik buyumlari qayta ishlanadi buni ijtimoiy tarmoqlarda kuzatib ham bilish qiyin emas. Va bu plastik buyumlarining qayta ishlanish oqibatida korxonalar qo'shimcha yana plastik buyum ishlab chiqarmaydi o'sha birinchi ishlatilgan plastik buyumlari qayta ishlangan holda ishlatiladi va bu esa tabiatga qo'shimcha plastik moddalarining chiqishini oldini oladi. Va Germaniya davlatida har bir topshirilgan plastik buyumlariga pul mukofotlari ham bor va shu sababli ham Germaniyada siz bir plastik buyumini shunday tashlab yubora olmaysiz siz undan foydalangan holatda siz undan foyda olasiz va shu sababli Germaniya aholisi hech qachon plastik buyumlarni shunday holatlarda tashlab ketmaydi (istisno holatlarda ular sotmagan hollarda o'zlari hohlagan hollarida ularni shundan tekinga qayta ishlashga topshirishi mumkin). Yana misol qilib

oladigan bo'lsak "Green city tashkent" loyihasi asosan chiqindilarni boshqarish, yashil infratuzilmani rivojlantirish va barqaror shahar turmushini targ'ib qilish maqsadida aholini habardor qilish kompaniyalarini o'tkazishga qaratilgan. Qo'shimcha qilgan holatda shuni aytmoqchimanki qanday holat bo'lishidan qat'iy nazar birinchi o'rinda aholi ongini oshirgan holatda ularga tushuntirishlar olib borilishi kerak agar shunday ishlar olib borilsagina bizlarning muamolarimiz yechilishi mumkun.

Xulosa : Ushbu muammolarni maqsadli yechimlar orqali hal qilish va butun dunyo bo'ylab muvaffaqiyatli misollardan foydalanish orqali O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirishi va yanada barqaror va mustahkam kelajakka yo'l ochishi mumkin. Hukumat, biznes, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamkorlar o'rtasidagi hamkorlik ushbu transformatsion jarayonni rivojlantirish va uzoq muddatli ekologik va iqtisodiy manfaatlarga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekistonda ham ekologik barqarorlik, ham iqtisodiy taraqqiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mamlakatning bu boradagi sa'y-harakatlari kelajak avlodlar uchun yashash uchun qulay muhit qoldirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ekologiya, Atrof- muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan 2 fevral kungi ma'lumot
2. Qalampir.uz ijtimoiy tarmoqda 2024-yil 2 – fevralda bergan ma'lumotlar
3. www.Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-sonli qaroriga asosan
4. The Diplomat's gazetasi
5. Daryo.uz nashri
6. www.darakchi.uz
7. www.unep.org - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotiga o'tishga tuzatishni belgilash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>